

KO`KRAK BEZI SARATONINI DAVOLASHDA YANGICHA YONDASHUV - APITERAPIYANI QO`LLASH

Xadjimuratova Mehribon Xadjimuratovna

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Urganch filiali Patomorfologiya kafedrasida asistenti

Nazarova Xilola Otabek qizi

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Urganch filiali 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7110471>

Annotatsiya. Ushbu maqolada dunyo reytingida ayollar o`lim ko`rsatkichi bo`yicha birinchi o`rinni egallagan ko`krak bezi saratonining yillar bo`yicha ko`rsatkichlar kesimi, keltirib chiqaruvchi sabablari hamda davolashda yangicha yondashuv apiterapiyani qo`llash haqida batafsil malumotlar keltirilgan. Asalariterapiya va kimyoterapiyani birgalikda qo`llab bemorlarni davolash haqida yangi fikr va mulohazalarimiz bayon etilgan.

Kalit so`zlar: mammografiya, gormonaterapiya, kam emizish, irsiy moyillik, apiterapiya, skrining markazlari.

ПРИМЕНЕНИЕ НОВОГО ПОДХОДА К ЛЕЧЕНИЮ РАКА МОЛОЧНОЙ ЖЕЛЕЗЫ – АПИТЕРАПИИ

Аннотация. В этой статье представлена подробная информация о раке молочной железы, ведущей причине смерти женщин в мире, по годам, его причинах и использовании апитерапии, нового подхода к лечению. Представлены наши новые идеи и мнения о лечении больных с применением пчелотерапии и химиотерапии совместно.

Ключевые слова: маммография, гормонотерапия, малолгрудное вскармливание, генетическая предрасположенность, апитерапия, скрининговые центры.

APPLICATION OF A NEW APPROACH TO THE TREATMENT OF BREAST CANCER - APITHERAPY

Abstract. This article provides detailed information on breast cancer, the leading cause of death for women in the world, by year, its causes and the use of apitherapy, a new approach to treatment. Our new ideas and opinions about the treatment of patients with the use of bee therapy and chemotherapy together are presented.

Keywords: mammography, hormone therapy, small breastfeeding, genetic predisposition, apitherapy, screening centers.

KIRISH

Jahon Sog`liqni Saqlash Tashkiloti statistik malumotlariga ko`ra dunyo bo`yicha ko`krak bezi saratoni o`pka saratonidan keyin ikkinchi o`rinda, ayollar o`limiga sabab bo`layotgan saraton kasalliklari ichida esa 1-o`rinni egallagan. Har yili dunyoda 800.000 -1.000 000 yangi kasallik holati qayd etilmoqda. Olimlarning ta`kidlashicha ko`krak bezi saratoniga chalinish xavfi 50-60 yoshlar oralig`ida ayniqsa yuqori bo`lib 70%ni tashkil qiladi. Dunyo bo`yicha har 12 ayoldan 1 tasi ushbu kasallikdan aziyat chekmoqda. Ushbu kasallik erkaklarni ham chetlab o`tmagan. Erkaklarda uchrash ehtimolligi 0.5-1%ni tashkil qilib, ularda kasallik kelib chiqishining 15%i genetik moyillik tashkil qiladi.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Sut bezi saratoni bo`yicha rivojlangan davlatlardagi vaziyat quyidagicha: Jumladan, Yaponiyada ham barcha davlatlar singari kasallikning ko`plab progressiv va regressiv jarayonlarini kuzatishimiz mumkin. Yaponiyada har 39 ayoldan biri shu kasallik bilan

kasallanadi. Xususan har 10000 aholiga nisbatan olganda o`rtacha 50-54 yoshdagilar uchun 1985-1989-yillarda 19 ta, 1990-1994-yillarda 21 ta 2000-2004-yillarda 29 ta bo`lgan bo`lsa, 2010-2014-yillarda 27 tani tashkil qilgan. Kasallikka chalinish xavfi yosh ortgan sari ortib boradi. Malumki, hozirda kasallik "yoshargani" tufayli hattoki 11-13 yoshli o`smirlar orasida ham uchramoqda. Ma'lumotlarga qaraganda amerikalik va yaponiyalik ayollar saraton kasaliga ko`proq chalinadi. Amerikaliklar to`yingan yog`li ovqatlarni va spirtli ichimliklarni ko`proq iste'mol qilishadi. Yaponiyaliklar kech farzandli bo`lishni xohlashgani uchun ko`p vaqtini yutqazadi.

Fransiyaga yuzlanadigan bo`lsak 1980-yillarda ushbu patologiya bilan kasallanish holati 21% ni, 2005-yilda 42% ni, 2013-yilga kelib esa 53% ga yaqin holat qayd etilgan. Har 100000 ayolga 15 tani tashkil etadi. Agarda erta bosqichlarda aniqlansa 99% hollarda davolash mumkin. Shu o`rinda ta'kidlab o`tish joizki, har bir homiladorlikda sut bezi saraton havfi 7% ga kamayar ekan, ayniqsa uzoq vaqt emizish kasallik rivojlanishini yanada kamaytiradi.

TADQIQOT NATIJALARI

Ko`pgina rivojlangan mamlakatlarda omon qolish ko`rsatkichlari yaxshilanganiga qaramasdan, bir nechta tadqiqotlarda aniqlanishicha Misrda kasallangan bemorlar kasallikning dastlabki 5 yilida omon qolish holati bo`yicha 28% dan 68% gacha bo`lgan past ko`rsatkichda qolgan. Ko`plab omillar omon qolish holatini pasayishiga sabab bo`ladi, shulardan biri **ko`plab bemorlarga kasallikning so`nggi bosqichlarida tashxis qo`yilishidir.**

O`zbekistonda ko`krak bezi saratoni 100000 kishidan 9.1 nafarga to`g`ri keladi. Ko`rsatgich o`tgan yillardagiga nisbatan 0.3% ga oshgan. 15-oktabr butunjahon ko`krak bezi saratoniga qarshi kurash kuni. O`zbekistonda onkologiya markazlari kasallikni tekshirish uchun yetarli asbob-uskunalar bilan taminlanmoqda va davolashning zamonaviy va samarali usullari amaliyotga tatbiq etilmoqda.

Apiterapiya-asalari zahri bilan davolash. Bu tibbiyotda yangicha yo`nalishlardan biri bo`lib, uni onkologiyada qo`llash aynan biz kutgan natijalarga erishishda yordam beradi. Oldin ko`krak bezining aynan qaysi joyida rak bo`lgani aniqlab olinadi. Keyin asalari bilan shu joyi chaqtiriladi. So`ngra bemorga kimyoterapiya qo`llaniladi. Bunda dorilar boshqa organlarga hech qanday tasir o`tkazmasdan aynan zararlangan joyga tasir ko`rsatadi. Shunday davolash usulini biz tibbiyotda qo`llasak juda yaxshi samara beradi. Olimlarning aniqlashicha asalari zahari tarkibida immunitetni ko`taruvchi moddalar mavjudligi aniqlangan. Bu esa qo`shimcha yuqumli kasalliklarni davolashda hamda bemorda ko`p dori istemol qilganda boshqa azolarning ishdan chiqishini oldini oladi. Hozirda bu usul chet davlatlari tibbiyotida keng qo`llanilmoqda. Ayniqsa Fransiya va Germaniyada bu usuldan keng foydalanilmoqda.

Asalari zahrining tarkibidagi komponentlar va ularning inson organizmiga tasiri:

- iz elementlari - magniy, fosfor, kaltsiy, mis;
- asetilkolin va gistamin - qon tomirlarining diametrini kengaytiradi va ularning o`tkazuvchanligini oshiradi;
- noorganik kislotalar - ortofosforik, xlorid, formik;
- aminokislotalar - mavjud 20 tadan 18 tasi;
- kislotali fosfataza - murakkab tuzilishga ega bo`lgan oqsil;
- gialuronidaza - to`qima va qon tuzilmalarini buzadigan, og`ir allergik reaksiyaga sabab bo`lgan maxsus ferment;

- fosfolipaz A - inson tanasi uchun kuchli allergen va antigen bo'lib, to'qimalarning nafas olish jarayonini buzadi va fosfolipidlarni toksik moddalarga aylantiradi;
- fosfolipaza B - toksik birikmalarni toksik bo'lmaganlarga aylantiradi, fosfolipaza A faolligini pasaytiradi.

MUHOKAMA

Asalari zahringing harakat mexanizmi:

Asalari zahari tarkibiga kiradigan fosfolipaza A lesitinga ta'sir qiladi, uni parchalaydi va hujayra membranalarining bir qismidir. Shu bilan birga, hujayralar qisman parchalana boshlaydi, ba'zan esa butunlay parchalanadi. Fosfolipaza A ham qizil qon hujayralariga bevosita ta'sir qiladi, bu ularning to'liq gemoliziga sabab bo'ladi. Gialuronidaza qon tomirlarining o'tkazuvchanligini oshiradi, zaharning so'rilish tezligi oshadi va uning toksik ta'siri kuchayadi.

Agar terapevtik dozalarda qo'llanilsa, foydali ta'sir ko'rsatadi. Uning yordami bilan kichik arteriyalar va kapillyarlar kengayadi, qondagi gemoglobin, shuningdek, leykotsitlar ko'tariladi. Yurakka tonik ta'sir ko'rsatadi, yuqori qon bosimi pasayadi. Asalari zaharining shifobaxsh ta'siri uning buyrak usti bezlari va gipofiz bezining faoliyatini faollashtirish, shuningdek, uyg'unlikni tiklash funksiyasi bilan bog'liq. Ushbu ta'sirdan kelib chiqib boshqa usullar yordamida ko'krak bezi saratonini davolash mumkin. Yani sut bezi saratonining asosiy kelib chiqish sabablaridan biri gormonal buzilishlardir. Kontraseptiv moddalarni ortiqcha dozada yoki o'zboshimchalik bilan qo'llash gormonlar almashinuvini buzadi. Asalari zaharini qo'llaganimizda esa gipofiz bezining faoliyati kuchayadi. Natijada esterogen, progesterone, LG va FSG gormonining sintezini tiklashimiz mumkin. Bunda gormonlar faoliyati yana iziga tushadi.

Ko'krak bezi saratonini erta aniqlab aynan birinchi bosqichda ushbu davolash usulini qo'llash bilan kasallikni 98% gacha davolashimiz mumkin.

O'sma hujayralari hali invazyalanmagan ``Rak in citu`` holatida esa 100% ijobiy natijaga erishishimiz mumkin. Buning uchun esa kasallikni erta aniqlash eng asosiysidir.

O'zbekistondagi ayrim holatlardan kelib chiqib ko'krak bezi saratonini davolashda quyidagi takliflarni bermoqchimiz:

- yurtimizdagi chekka hududlarda skrining markazlarini ochish,
- poliklinikalarda onkomammolog shifokorlarning faoliyatini yanada kuchaytirish, poliklinikalarning hammasini yangi tibbiy uskunalari bilan jihozlashimiz zarur.
- Aholining tibbiy salohiyatini oshirishimiz kerak. Buning uchun har bir poliklinikadagi shifokorlar aholining aynan ayollar qatlamini qamrab olishi zarur. Ular bilan har xil uchrashuvlar o'tkazishi, ayollarga ko'krak bezini o'zlari uyda ixtiyoriy ravishda qanday tekshirish kerakligini o'rgatishlari kerak.
- 30 yoshdan oshgan barcha ayollarni har 6 oyda majburiy ravishda mammolog ko'rigidan o'tkazishni yo'lga qo'yishimiz kerak. Shundagina biz kasallikka chalingan ayollarni erta bosqichda aniqlashimiz hamda ularni ro'yhatga olgan holda muntazam kuzatib borishimiz mumkin.
- Menopauzal davrdagi hamda bu davrni boshidan o'tkazgan ayollarda ko'krak bezi saratoni profilaktikasini olib borish.

Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirish bilan biz ko'krak bezi saratonini davolashda yaxshi natijalarga erishishimiz mumkin.

XULOSA

Agar biz yuqoridagi amaliyotlarni qo`llasak kasallikni erta bosqichda aniqlashimiz, erta tashxislashimiz va bemorlarni 90-95% hollarda bemorlar hayotini asrab qolishimiz mumkin. Izlanishlar shuni ko`rsatadiki kasallikni erta aniqlash bu eng asosiy omil.

REFERENCES

1. <https://www.mozocare.com/uz/muomala/ko%27krak-bezi-saraton-bilan-davolash>
2. https://resoncol.journals.ekb.eg/article_124868_da332d034a0db99729e35909e051a557.pdf
3. <https://www.canada.ca/en/public-health.html>
4. <https://cancer.ca/en/cancer-information/cancer-types/breast/statistics>
5. <https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/breast-cancer#:~:text=In%202020%2C%20there%20were%202.3,the%20world's%20most%20prevalent%20cancer.>
6. <https://fingernal.ru/uz/disease/pchelinyi-yad-ego-osobennosti-i-primeneniye-kak-pchelinyi-yad-primenyaetsya-v/>